



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

ZAMONAVIY DAVRDA SHARQ MAMLAKATLARI SIYOSIY HAYOTIDA ARMIYA INSTITUTINING KUCHAYISHI VA HARBIY TO‘NTARISHLAR DINAMIKASI

Fayzullayev Adham Aktam o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: fayzullayevadham38@gmail.com
Tel: (91) 954-52-36

Annotatsiya. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Sharq mamlakatlarida armiya institutining siyosiy jarayonlardagi roli sezilarli darajada kuchaydi. Harbiylarning davlat boshqaruvida faol ishtiroki ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi va ko‘plab hollarda siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratildi. Shu bilan birga, fuqarolik institutlarining zaifligi, ichki va tashqi xavfsizlik tahdidlari hamda modernizatsiya jarayonining murakkabligi armiyaning siyosiy maydonga faol kirib kelishiga imkon yaratdi. Mazkur maqolada Sharq mamlakatlari tajribasi asosida harbiy institutlarning kuchayishi, ularning siyosiy jarayonlardagi o‘rni va harbiy to‘ntarishlar dinamikasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Sharq mamlakatlari, harbiy-siyosiy tizim, davlat barqarorligi va xavfsizlik, milliy davlatchilik, demokratik institutlar.

В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ УСИЛЕНИЕ ИНСТИТУТА АРМИИ И ДИНАМИКА ЕННЫХ ПЕРЕВОРОТОВ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ СТРАН ВОСТОКА

Файзуллаев Адхам Актам ўгли
Ташкентский государственный университет востоковедения
Преподаватель Кафедры истории и антропологии стран Востока
E-mail: fayzullayevadham38@gmail.com
Tel: (91) 954-52-36

Аннотация. В конце XX – начале XXI века в странах Востока роль военного института в политических процессах значительно усилилась. Активное участие военных в управлении государством проявилось как важный фактор в решении социально-политических проблем и во многих случаях было направлено на обеспечение политической стабильности. Вместе с тем слабость гражданских институтов, внутренние и внешние угрозы безопасности, а также сложность процессов модернизации способствовали активному вовлечению армии в политическую сферу. В данной статье на

основе опыта восточных стран анализируются усиление военных институтов, их место в политических процессах и динамика военных переворотов.

Ключевые слова: Восточные страны, военно-политическая система, государственная стабильность и безопасность, национальное государствовроительство, демократические институты.

THE CONSOLIDATION OF THE MILITARY INSTITUTION AND THE DYNAMICS OF COUPS IN THE POLITICAL LIFE OF EASTERN COUNTRIES IN THE CONTEMPORARY ERA

Fayzullayev Adham Aktam ugli

Tashkent State University of Oriental Studies

Lecturer of the Department of History and Anthropology of Eastern Countries

E-mail: fayzullayevadham38@gmail.com

Tel: (91) 954-52-36

Annotation. *At the turn of the 20th and 21st centuries, the role of the military institution in the political processes of Eastern countries increased considerably. The active involvement of the armed forces in state governance emerged as a crucial factor in addressing socio-political challenges and, in many cases, was directed toward maintaining political stability. At the same time, the weakness of civilian institutions, the presence of internal and external security threats, and the complexities of modernization created conditions for the military’s active engagement in the political arena. This article examines, through the experience of Eastern countries, the strengthening of military institutions, their role in political processes, and the dynamics of military coups.*

Key words: *Eastern countries, military-political system, state stability and security, nation-building, democratic institutions.*

KIRISH

Sharq mamlakatlari siyosiy hayotida armiya institutining o‘rni tarixiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarida harbiylarning siyosiy jarayonlardagi faolligi kuchaydi. Bu holat ko‘pincha siyosiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida talqin qilinsa-da, amalda demokratik boshqaruv institutlarining rivojlanishiga jiddiy

to‘siq bo‘ldi. Mintaqada fuqarolik boshqaruvining zaifligi, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, tashqi va ichki xavfsizlik muammolari hamda milliy davlatchilik qurilishi jarayonidagi murakkabliklar armiyani siyosiy kuch sifatida chiqishga majbur qildi.

Bugungi kunda Sharq mamlakatlarida harbiylarning siyosiy jarayonlardagi o‘rni nafaqat tarixiy tajriba sifatida, balki zamonaviy davlat boshqaruv tizimlarini shakllantirishda ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonni o‘rganish mintaqadagi siyosiy barqarorlik va demokratik institutlarning istiqbolini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, Misr, Turkiya, Eron, Iroq va Suriya misolida armiyaning siyosiy kuch sifatida shakllanishi va uning oqibatlarini ilmiy tahlil qilish Sharq davlatlari siyosiy tizimining o‘ziga xos jihatlarini yoritib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq mamlakatlarida armiya va siyosat munosabatlari hamda harbiy to‘ntarishlar dinamikasiga oid tadqiqotlarda turli yondashuvlar shakllangan. V. Ахмедов, G.I. Мирский, А.А. Туровская, N.G. Киреев va A.D. Васильев larning ishlari Yaqin va O‘rta Sharq siyosiy tizimida armiya institutining kuchayishi, xalqaro omillar va modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq jihatlarini yoritadi. Ushbu tadqiqotlarda armiya nafaqat mudofaa kuchi, balki siyosiy barqarorlik va hokimiyatni shakllantiruvchi asosiy institut sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tadqiqotchilar E.N. Luttwak, L. Freedman, W. Ma lar esa harbiy to‘ntarishlarning tashkiliy mexanizmlari, muvaffaqiyat omillari hamda xalqaro sharoitning rolini nazariy jihatdan asoslaydi. Bu qarashlar to‘ntarishlarni faqat ichki siyosiy inqiroz emas, balki global geosiyosiy jarayonlar bilan bog‘liq hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.

USLUBLAR

Tadqiqotda tarixiylik tamoyiliga asoslanilgan bo‘lib, voqealar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Shuningdek, qiyosiy-mantiqiy tahlil metodi yordamida Sharq mamlakatlarida armiya va siyosat

o‘rtasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlari va farqli jihatlari solishtirib ko‘rsatildi. Tizimli yondashuv esa o‘rganilayotgan jarayonlarni kompleks tarzda, ya’ni siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bir-biri bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Mazkur uslublardan foydalanish natijasida, harbiylarning siyosiy maydonga chiqishiga sabab bo‘luvchi umumiy omillar (davlat institutlarining zaifligi, tashqi xavf-xatarlar, mafkuraviy qarama-qarshiliklar) hamda har bir mamlakatga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar (milliy an‘ana, tarixiy tajriba, ijtimoiy tuzilma) ilmiy asosda aniqlab berildi. Shuningdek, tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, arxiv manbalari va zamonaviy ilmiy izlanishlar natijalari tahlil qilinib, mavzu bo‘yicha ilgari surilgan turli nuqtai nazarlar o‘zaro qiyosiy o‘rganildi.

MUHOKAMA

Sharq mamlakatlarida, xususan, Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarida armiya siyosiy tizimning markaziy institutlaridan biri sifatida shakllangan. Bunday holat, birinchi navbatda, ushbu mintaqalarda siyosiy institutlarning rivojlanmaganligi, zamonaviy fuqarolik jamiyatining zaifligi, shuningdek, tashqi va ichki tahdidlarning yuqori darajasi bilan izohlanadi. Bu mintaqalarda davlat qurilishi jarayonida armiya nafaqat xavfsizlikni ta’minlovchi kuch, balki milliylik g‘oyasining tashuvchisi va ijtimoiy–siyosiy modernizatsiyaning asosiy vositachisi sifatida maydonga chiqqan.

Yaqin Sharq mintaqasida harbiylarning siyosiy hayotdagi faolligi tarixiy va strukturaviy omillar bilan izohlanadi. 1931–yildan 2023–yilgacha bu mintaqada kamida 103 ta harbiy to‘ntarish sodir bo‘lgani qayd etilgan. Ushbu hodisalar besh tarixiy bosqichga – boshlanish, cho‘qqiga chiqish, pasayish, sustlashish va yana jonlanish bosqichlariga bo‘linadi. Har bir bosqichda armiya va fuqaroviy hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘ziga xos shakl olgan[1].

Ko‘plab Sharq mamlakatlarida, xususan Usmoniy imperiyasi, Eron, Misr, Iroq va Suriyada harbiylar elita qatlamini shakllantirib, davlat hokimiyatining markaziy timsoliga aylangan. Ular G‘arbcha boshqaruv modeli, texnik intizom va

milliy manfaatlar konsepsiyasini joriy etib, modernizatsiya jarayonini fuqarolik tashabbuslaridan ko‘ra tezroq boshlab bergan. Armiya nafaqat xavfsizlik, balki iqtisodiyot, infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ham faol islohotchi bo‘lib, siyosiy yetakchilikka da’vogarligini kuchaytirgan. G‘arbiy harbiy bilim va texnologiyalar, xususan nemis va fransuz harbiy maktablarining ta’siri mahalliy harbiy elitalarga institutsional va mafkuraviy ustunlikni ta’minlagan. Mustamlakachilikdan ozod bo‘lgan davlatlarda armiya ko‘pincha eng barqaror va ishonchli institut sifatida milliy davlatchilik poydevorini yaratgan; Misr (Nosir), Turkiya (Otaturk) va Eron (Rizo Shoh) tajribalari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu tariqa, armiya milliy g‘urur va suverenitet timsoliga aylangan[2].

Armiya va davlat boshqaruvining uyg‘unlashuvi faqatgina tashqi tahdid yoki ichki isyonlarga javoban shakllanmagan. Balki u siyosiy partiyalarning zaifligi, islomiy harakatlarning siyosiy maydonda ruxsatsiz bo‘lishi, xalq orasida ishonchli muqobil institutlarning yo‘qligi sababli kuchaygan. Natijada, fuqarolik jamiyatining o‘rmini harbiylar egallagan.

Turkiya misolida bu jarayon Usmoniy imperiyasi davridan boshlanadi. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshida olib borilgan harbiy islohotlar armiyani siyosiy jarayonlar markaziga olib keldi. Colmar von der Goltz kabi xorijiy harbiylar Turk harbiy elitasi ongida armiya – millatning peshvosi degan g‘oyani mustahkamladi. Bu mafkura keyinchalik Ittihad va Taraqqiyot partiyasi, hamda Otaturk boshchiligidagi harbiy–siyosiy harakatlarda asosiy ideologik manba bo‘ldi.

Shu tarixiy zaminni inobatga olgan holda, 2016-yil 15-iyuldagi muvaffaqiyatsiz harbiy to‘ntarish urinishi Turkiya siyosiy hayotida armiyaning tarixiy merosini qayta muhokama qilish zaruratini yuzaga chiqardi. Avvalgi davrlarda armiya siyosiy hokimiyatni shakllantirishda hal qiluvchi kuch sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, mazkur voqea fuqarolik jamiyatining faollashuvi, demokratik institutlarning nisbatan mustahkamlanishi va xalqning bevosita qarshiligi tufayli yangi natijaga olib keldi. Bu esa Turkiyada armiya va siyosat o‘rtasidagi an’anaviy munosabatlarda muhim burilish yasaganini ko‘rsatadi. Eron tajribasida esa Reza

Shoh armiyani modernizatsiya qilgan holda uni davlat byurokrtiyasining yadrosiga aylantirdi. Harbiylar bu yerda faqat xavfsizlik bilan shug‘ullanmadi, balki huquqiy islohotlar, yangi institutlar tashkil etish, yer islohoti va milliyashtirish siyosatini ham olib bordi. Bu holat armiyani de-fakto hukmron kuchga aylantirdi.

Qadimgi sivilizatsiyalar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, armiya davlat barqarorligining asosiy tayanchi sifatida qaralgan. Xitoyda legizm ta’limoti asoschisi Shon Yan va Han Fey hukumat kuchli armiya va intizomga tayanishi lozimligini ta’kidlasa, Hind an’analarida ham podshohning eng muhim vazifasi harbiy yurishlarga boshchilik qilish deb hisoblangan. Shu bois, armiya nafaqat tashqi tahdidlarga qarshi, balki ichki siyosiy muvozanatni saqlovchi asosiy institut sifatida maydonga chiqqan[3].

Yaqin Sharqda fuqarolik tuzilmalarining sustligi armiyani barqarorlikni ta’minlovchi asosiy siyosiy institut sifatida ko‘rsatgan. Bu mintaqada harbiy to‘ntarishlar odatda markazlashgan harbiy tuzilmalar tomonidan amalga oshirilib, xalq roziligidan ko‘ra texnik nazorat va boshqaruv mexanizmlariga tayanadi. Milliy xavfsizlik yoki barqarorlikni tiklash shiori ostida yuz bergan bunday aralashuvlar, aslida, zaif davlat institutlari va tarqoqlashgan siyosiy partiyalar hisobiga armiyaga siyosiy ustunlikni qo‘lga kiritish imkonini bergan[4].

Tashqaridan qaraganda harbiy to‘ntarish siyosiy xarakterni ifodalovchi texnik operatsiya bo‘lib ko‘rinadi. Harbiy to‘ntarishning ayniqsa klassik varianti keng tarqalgan bo‘lib, unda jang qiluvchi birlashmalar boshchiligidagi ofitserlarning ma’lum bir qismi amaldagi hokimiyatni ag‘darish maqsadida harakatga keladi.

Harbiy to‘ntarishni rejalashtirgan fitnachilar doimo muvozanatni saqlash zaruratiga duch keladi: ishtirokchilar soni kam bo‘lsa – fosh bo‘lish xavfi nisbatan past bo‘ladi, ko‘p bo‘lsa – muvaffaqiyat ehtimoli ortadi. Biroq tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, poytaxt egallanib, hokimiyat e’lon qilingandan keyin ham qurolli kuchlarning asosiy qismini tashkil etuvchi yirik garnizonlar qo‘mondonlarining qo‘llab-quvvatlovi bo‘lmasa, to‘ntarish muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu bois qo‘mondonlarning to‘ntarishdan avval xabardor bo‘lishi yoki u amalga oshirilgach

uni qo‘llab-quvvatlashga tayyor turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yuqori lavozimdagi harbiylarning ko‘pincha to‘ntarish tashabbuskorlari sifatida maydonga chiqishini tasdiqlaydi.

1950–1970-yillar oralig‘ida mintaqaning 14 davlatida harbiy to‘ntarishlar sodir bo‘lib, armiya mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik harakatlarining markaziga aylandi. Misr, Pokiston, Sudan, Iroq, Turkiya, Suriya, Yaman va boshqa davlatlarda hukmron tuzumdan norozilik kuchayib, aholi qo‘llab-quvvatlashini yo‘qotgan hukumatlar ag‘darildi. Shu bois to‘ntarishlar ko‘pincha jamiyatning sezilarli qismi tomonidan ijobiy qabul qilindi[5].

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalq tomonidan keng qo‘llab-quvvatlangan hukumatga qarshi harbiy to‘ntarishlar deyarli muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Bu esa to‘ntarish avvalo armiyada emas, balki jamiyatda ijtimoiy norozilik shakllanganida yuz berishini anglatadi. Shu bilan birga, harbiy to‘ntarish uchun sharoit yetilgan bo‘lsa-da, hukumat o‘z mavqeini saqlab qolgan holatlar ham mavjud. To‘ntarish muvaffaqiyatining kaliti – armiyadagi birdamlik, yuqori lavozimli qo‘mondonlarning roziligi yoki qarshilik qilmasligidir. Tajribali harbiy rahbarlar juda zarur bo‘lgandagina hokimiyatga qarshi chiqadilar, yosh ofitserlar esa bevosita tahdid ostida harakatga kirishadi. Ko‘plab hollarda hokimiyat almashinuvi armiyaning yuqori doiralarida yuz beruvchi maxfiy kelishuv natijasida ro‘y beradi.

Harbiylar to‘ntarishga qaror berishda jamoatchilik kayfiyatini e‘tiborga oladilar, ammo bu yagona omil emas. Umumiy norozilik odatda tarqoq va ziddiyatli bo‘lib, jamiyatning turli qatlamlari – burjua, ishchilar, ziyolilar – har xil motivlarga ega bo‘ladi. Agar fitna radikal harbiy guruhlar tomonidan uyushtirilsa, u ko‘pincha so‘l kayfiyatdagi ommaning fikrini ilgari suradi (Masalan: Misr, Suriya). Aksincha, G‘arb ta’limini olgan konservativ qo‘mondonlar boshchiligidagi to‘ntarishlar, odatda o‘rta sinf – byurokratiya va burjuaziya manfaatlariga mos siyosiy yo‘nalish tanlaydi (Masalan: Sudan, Pokiston, Gana). Shunday qilib, harbiy to‘ntarishlarning ijtimoiy asoslari bir xil bo‘lmay, tashabbuskor kuchlarning mafkuraviy yo‘nalishiga qarab shakllanadi. Ko‘p holatlarda davlat to‘ntarishi chetdan kelgan kuchlar

tomonidan emas, joriy hokimiyatda muayyan lavozimlarni egallab turgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida armiya va boshqa yuqori lavozimlarni egallab turgan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan.

NATIJALAR

Sharq mamlakatlarida armiya siyosiy tizimning asosiy institutiga aylanishi, avvalo, davlat boshqaruvining zaifligi va siyosiy muvozanatning yetishmasligi bilan bog‘liq. Misr tajribasi shuni ko‘rsatadiki, armiya siyosiy inqiroz davrida tartibni tiklovchi kuch rovida namoyon bo‘lib, o‘zining qonuniy mavqeini mustahkamladi. 1952-yilgi davlat to‘ntarishi yuqori martabali qo‘mondonlar emas, balki o‘rta toifadagi zobitlar – Jamol Abdul Nosir boshchiligida amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir. Nosirning Falastin urushidagi faoliyati va harbiy akademiyadagi obro‘si unga siyosiy maqomini mustahkamlab, Misrda armiyaning uzoq muddat siyosiy hukmronligiga asos yaratdi.

Xalqaro siyosiy muhit va xavfsizlikdagi o‘zgarishlar ham armiyaning siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirgan. Geosiyosiy raqobat, kuchlar muvozanatining o‘zgarishi va gibril tahtidlarining ortishi natijasida ko‘plab davlatlarda armiya mudofaa kuchidan tashqari ichki barqarorlikni ta‘minlovchi institut sifatida ko‘rilgan. Bu esa armiyaning siyosiy qonuniyligini mustahkamlab, davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirgan[6].

To‘ntarishlarning yuzaga kelishida siyosiy inqiroz, ijtimoiy islohotlarning sustligi, keng xalq noroziligi, korrupsiya va hukumatning muammolarga yechim topa olmasligi asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi. Misr va Iroq tajribasi fuqarolik jamiyatining zaifligi va oppozitsiyaning kuchsizligi harbiylarning siyosiy maydonga chiqishini yengillashtirganini ko‘rsatadi. To‘ntarishlar ikki shaklda namoyon bo‘ladi: birinchisi – armiya rahbariyatining buyruq asosida hokimiyatni egallashi; ikkinchisi – fitnachi zobitlarning tashabbus ko‘rsatib, qasamyodga zid ravishda siyosiy xavfni o‘z zimmasiga olishi. Aynan ikkinchi shakl Jamol Abdul Nosir va Abdulkarim Qosim boshchiligidagi to‘ntarishlarda yaqqol kuzatilgan.

Harbiy to‘ntarishlarning ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin, biroq ularning mazmuni mamlakatdagi siyosiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Armiya jamiyatning ajralmas qismi sifatida siyosiy tanazzul va xalq noroziligini bevosita sezadi. Misr va Iroq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inqilob avvalo harbiylarning ongida shakllanadi – ular amaldagi tuzumdan norozi bo‘lib, asta-sekin oppozitsion kuchga aylanadi. Zobitlarning bir qismi qasamyodga sodiq qolgan bo‘lsa-da, ko‘plab harbiylar millat manfaatlarini ustun qo‘yib, inqilobchilar tomoniga o‘tgan. Bu esa haqiqiy to‘ntarish jarayoni, eng avvalo, armiyaning ichki ruhiy muhitida boshlanishini tasdiqlaydi[7].

Harbiy to‘ntarishlar odatda bir xil ssenariy asosida amalga oshiriladi. Muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi harbiy kuchlarga ega bo‘lish, muhim harbiy rahbarlarni jalb etish, hujumni erta tongda yoki dam olish kunlari boshlash kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Aholi uyg‘onmasdan turib poytaxtdagi strategik ob’ektlar – qarorgoh, mudofaa vazirligi, bosh shtab, televideniye va aerodromlar tezda egallanadi. Ba’zida rasmiy tadbirlar yoki tashqi harakatlar bahonasida hukumat e’tiborini chalg‘itish orqali zarba beriladi.

To‘ntarish paytida aksariyat hollarda faqat prezident tansoqchilari bilan to‘qnashuvdagina qon to‘kilishi kuzatiladi. Prezident qorovul qo‘shini mahv etilgach, prezident mag‘lub bo‘lganini tan oladi. U tashqaridan yordam so‘rashi mumkin bo‘lgan barcha aloqalar to‘siladi. Inqilobchilar muvaffaqiyatining butunlay kafolati bu, barcha vazirlarni hibsga olish hisoblanadi. Gabonda Prezident Mba hukumatini ag‘darish paytida birgina vazirning qo‘ldan chiqarilishi barcha harakatlarni puchga chiqaradi: vazir o‘z vakolatidan foydalanib Fransiya hukumatiga murojaat qiladi. Fransuz harbiylari hibsdagi prezidentni ozod qilib, inqilobni bostirgan edi.

To‘ntarish amalga oshirilgach, odatda darhol harbiy holat joriy etilib, komendantlik soati e’lon qilinadi, transport va aloqa vositalari nazoratga olinadi. Inqilob yetakchisining radio va televideniye orqali hukumat ag‘darilgani hamda davlat boshqaruvi armiyaga o‘tgani haqida murojaati jarayonning eng muhim qismi

hisoblanadi. Biroq harbiylar tartib va intizomni ta’minlashda samarali bo‘lsalar-da, islohotlar va modernizatsiya kabi murakkab vazifalar ko‘proq siyosiy tajriba va demokratik qarashlarni talab qiladi. Shu sababli, harbiy boshqaruv tabiiy cheklovlarga ega. Hokimiyatni egallagan rejim milliy rahbariyatni shakllantirish uchun o‘zidan tashqarida siyosiy apparat yaratishga majbur bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa harbiy rejimlar uzoq davom etishi qiyin: ular keng ommaga tayanadigan mafkuraviy-siyosiy tuzilishga aylanishi yoki hokimiyatdan chekinishi lozim bo‘ladi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy rejimlarning siyosiy maydonda barqarorlashuvi va sotsial tizimga aylanishi faqatgina tashkiliy tuzilmalar yaratish bilan emas, balki kengroq ijtimoiy tayanch izlash zarurati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular o‘z legitimligini mustahkamlash jarayonida ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va davlat suverenitetini himoya qilish kabi vazifalarni oldinga suradi. Shu orqali harbiy rejim o‘zini mustaqil hukmron kuch emas, balki jamiyat bilan uzviy aloqador va uning manfaatlarini ifodalovchi subyekt sifatida namoyon qiladi. Bu esa ularning uzoq muddat siyosiy maydonda saqlanib qolishiga va davlat boshqaruvida muhim rol o‘ynashiga zamin yaratadi.

Sharq mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, armiya instituti tarixan nafaqat mudofaa kuchi, balki siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida shakllangan. Misr, Eron, Iroq va boshqa davlatlarda kuzatilgan to‘ntarishlar hamda Turkiya tajribasi buni yaqqol tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘ntarishdan oldingi harbiy qarashlar keyinchalik ularning siyosiy faoliyat yo‘nalishini belgilagan. Masalan, 1952-yil Misr inqilobida “Ozod ofitserlar” jamiyatdagi intellektual norozilikni o‘zlashtirib, agrar islohotlar va ingliz qo‘shinlarini chiqarish kabi dolzarb masalalar orqali siyosiy sahnaga chiqqan bo‘lsa, Suriya va Iroqda armiya partiyaviy tuzilmalar bilan birlashib, harbiy-diktatorlik shaklida hokimiyatni egallagan. Bu holatlarda fuqarolik jamiyati va siyosiy partiyalarning zaifligi armiyaning siyosiy elita ichida yetakchi

kuchga aylanishiga yo‘l ochgan. Biroq, 2016-yil 15-iyul voqealari Turkiyada fuqarolik jamiyati va demokratik institutlarning kuchayishi tufayli armiyaning an’anaviy siyosiy roliga jiddiy zarba berdi. Shu tariqa, zamonaviy davrda armiya va siyosat munosabatlarida yangi bosqich boshlandi: armiyaning davlat barqarorligini ta’minlovchi omil sifatidagi mavqeini inkor etmagan holda, fuqarolik institutlari va xalq irodasining ustuvorligi yanada barqarorlashib bormoqda.

XULOSA

Sharq mintaqasida armiya siyosiy hayotda o‘zining muhim rolini faqat favqulodda holatlarda emas, balki odatiy siyosiy sharoitlarda ham saqlab qoladi. Bu esa uni nafaqat xavfsizlik kafolatchisi, balki tizimiy siyosiy o‘yinchiga aylantiradi. Harbiy kuchning mana shunday latif, lekin barqaror ishtiroki bu davlatlarda demokratik institutlarning zaifligi va armiyaning siyosiy kontekstda strategik resursga aylanganidan dalolat beradi.

Sharq mamlakatlarida harbiylarning siyosiy hayotdagi faolligi doimiy hodisaga aylanib, ular konstitutsiyaviy me’yorlarga tayanayotgandek ko‘rinsa-da, amalda siyosiy institutlar ustidan nazoratni saqlab qoladi. Bu jarayon demokratiya rivojini sekinlashtirib, armiyaning o‘z manfaatlarini himoya qilishiga xizmat qiladi. Mintaqaviy tajribalar ko‘rsatadiki, zaif partiyalar va parlament tizimlari sharoitida armiya siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi va millat nomidan harakat qiluvchi asosiy institut sifatida qabul qilingan. Tarixiy tajriba, tashqi bosimlar, ichki beqarorlik va diniy ziddiyatlar esa armiyaning siyosiy maydondagi yetakchi rolini mustahkamlab, bugungi kunda ham uning faol ishtirokiga zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ma W. *The Dynamics of Military Coups in the Contemporary Middle East* // *Asian Review of Political Economy*, 2025. – Vol. 4:8. – P. 18.
2. Ахмедов В. *Государство и армия в канун перемен на Ближнем и Среднем Востоке* // *Азия и Африка сегодня*. – Москва: Восточная литература, 2008. – № 1. – С. 137–152.

3. Туровская А.А. *К вопросу об основных концепциях роли армии в государстве* // Азия и Африка сегодня. – Москва: Восточная литература, 2008. – №1. – С. 203–208.
4. Luttwak E. N. *Coup d’État: A Practical Handbook*. – Harvard University Press, 2016. – 265 p.
5. Мирский Г. И. *Армия и политика в странах Азии и Африки*. – Москва: Наука, 1970. – 343 с.
6. Freedman L. *Military Power and Political Influence* // International Affairs. – Oxford UP, 1998. – Vol. 74, No. 4. – P. 763–780.
7. Bedrik A.V., Voloshina E.E., Gubarev I.V. *Турецкий политический процесс в 1960–х – начале 1970–х гг.: попытки реинтеграции ислама в кемалистскую модель государства* // Известия вузов. – Ростов–на–Дону, 2018. – № 4. – С. 35–40.